



O‘ZBEKISTONNING OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI BILAN HAMKORLIGI YANGI BOSQICHDA

Usarov Sirojiddin Raxmatullaevich

Samarqand davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Osiyo–Tinch okeani mintaqasi ustuvor yo‘nalishlar qatorida e’tirof etilgan. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab mintaqaning rivojlangan va jadal rivojlanayotgan davlatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik o‘rnatilgan. Davlat tashqi siyosatining mazkur vektori bilan hamkorlik 2017-yildan boshlab yangi darajaga ko‘tarila boshladi. Maqolada Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlari ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi siyosat, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi, hamkorlik, o‘zaro tashriflar

Osiyo – Tinch okeani mintaqasi bugun dunyoning eng rivojlangan va katta salohiyatga ega bo‘lgan qismiga aylanib ulgurdi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab mazkur mintaqaga O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralib kelingan. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy yondashuviga muvofiq mintaqada o‘rin egallangan Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan hamkorlik “strategik hamkorlik” darajasiga ko‘tarilganligi yuqoridagi fikrlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

2016-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Sh.Mirziyoevning kelishi bilan davlat hayotining barcha jabhalarida keng ko‘lamli chuqur va zalvorli, qat’iy va izchil islohotlar boshlandi. Mamlakat tashqi siyosatidagi prinsiplarga sodiqlik va ustuvor yo‘nalishlari saqlab qolinishi belgilandi. Jumladan, Bosh vazir sifatida 2016-yil 8-sentabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqida “O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tibori va pozitsiyasini yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi faol amalga oshirilishi” qayd etilib, “bundan buyon ham barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorlikni



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

davom ettirish” e’lon qilindi. Osiyo–Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridan Xitoy Xalq Respublikasi bilan har tomonlama strategik hamkorlikni yanada mustahkamlash, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa davlatlar bilan iqtisodiyot, investitsiyalar, fan va texnologiyalar, ta’lim, sog’liqni saqlash va turizm sohalarida hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga ustuvor darajada ahamiyat qaratilishi ma’lum qilingan edi [1]. Bu orqali O‘zbekiston hukumati 2012-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlarda qayd etilgan “Osiyo–Tinch okeani mintaqasi” davlatlari bilan hamkorlik mamlakat tashqi siyosatida ustuvorlik sifatida davom ettirilishi belgilandi. Mazkur huquqiy hujjatda mintaq “global iqtisodiyot va siyosatning markazi sifatida” e’tirof etilgan [2, B.13].

Mamlakat tashqi siyosati oldida turgan asosiy vazifa sifatida tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqish emas, balki yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash ekanligi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da qayd etib o‘tildi. Chunonchi, maqsad qilingan besh yillik davrda “chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat”ga ustuvorlik berilib, “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” vazifasi ko‘rsatib o‘tildi [3, B.27-28]. Jumladan, 2017-yil mayda XXRga va noyabrda Koreya Respublikasiga, 2019-yil dekabrda Yaponiyaga rasmiy tashriflari muayyan darajada birinchidan yuqoridagi qo‘yilgan vazifani bajarishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchidan mamlakat tashqi siyosat vektorida Osiyo–Tinch okeani davlatlarining o‘rni muhimligini ko‘rsatib berdi. Shartnomaviy-huquqiy asoslar yanada mustahkamlandi. Jumladan, 2017-yilda Xitoyga amalga oshirilgan davlat tashrifi jarayonida ikki tomon o‘rtasida 100 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi [4]. Xuddi shunday holatni davlat rahbarining Yaponiyaga amalga oshirilgan tashrifida kuzatish mumkin. Umumiy qiymati 6.5 mlrd AQSh dollarini tashkil etuvchi 48 ta kelishuv va shartnomalar rasmiylashgan [5].

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish navbatdagi bosqichi, ya’ni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ga muvofiq 7-ustuvor



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

yoʻnalish ichida tashqi siyosatga doir erishish koʻzlangan maqsadlar belgilandi. Unda **“anʻanaviy** hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish” qayd etildi. Bunda **“anʻanaviy hamkorlar”** bilan aloqalarni rivojlantirish bilan birga ayni vaqtda boshqa davlatlar hisobiga hamkorlik geografiyasini kengaytirish ham inobatga olindi.

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan **“Taraqqiyot strategiyasi”**da belgilangan maqsadlar **“Oʻzbekiston – 2030 stragiyasi”** bilan takomillashtirildi.

Aytish kerakki, mazkur bosqichda ham Osiyo–Tinch okeanining oʻrni respublika tashqi siyosatida ustuvor vektorlardan biri boʻlib qaraldi. Ayni vaqtda davlat va hukumat yetakchilarining oʻzaro tashriflarining amalga oshirilganligi mazkur mintaqa davlatlarida ham Oʻzbekistonga boʻlgan intilish kuchayotganligini koʻrsatib beradi. Jumladan, Xitoy Xalq Rsepublikasi, Malayziya Federatsiyasi va Singapur davlatlari bilan oʻzaro davlat tashriflari amalga oshirilgan boʻlsa, Koreya Respublikasi yetakchisining 2024-yil iyunda Oʻzbekistonga kelishi qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan navbatdagi tashrif boʻldi (2019-yilda ham Oʻzbekistonga davlat tashrifini amalga oshirgan edi).

Barcha yoʻnalishlari qatori Osiyo–Tinch okeani mintaqasi bilan hamkorlikning yangi bosqichga chiqishi birinchi navbatda Oʻzbekiston tashqi siyosatdagi faollashuv va tashabbuslar, ichki siyosatdagi tub islohotlar bilan bevosita bogʻliqdir. Jumladan, birinchidan siyosiy munosabatlardagi faollashuv oʻz navbatida iqtisodiy hamkorlik rivojiga ham xizmat qilda. Birgina 2023-yilda Oʻzbekiston mahsulotlari 10 dan ortiq yangi bozorlarga chiqishga erishgan boʻlsa, uning katta qismi Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlari hisobiga toʻgʻri keladi [6]. Ikkinchidan, Osiyo–Tinch okeani mintaqasining iqtisodiy taraqqiy qilgan ikki davlati XXR va Koreya Respublikasi soʻnggi yillarda Oʻzbekiston asosiy tashqi savdo hamkorlari roʻyxatida beshlikda oʻrin egallab keldi, hatto XXR 2023-yildan boshlab Rossiyadan Oʻzbekistonning birinchi raqamli tashqi savdo hamkori **“maqomi”**ni **“tortib oldi”**. Uchinchidan, Oʻzbekistonga investitsiya kiritish boʻyicha ham, yangi loyihalarni ishga tushirishda boʻyicha ham Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlarining ulushi salmoqli boʻlmoqda. 2021-yil yakunlariga koʻra Oʻzbekistonga eng koʻp investitsiya



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

kiritgan dastlabki beshlik tarkibidan ikkitasi Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlariga to‘g‘ri kelgan [7].

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston tashqi siyosatida Osiyo–Tinch okeani mintaqasi ustuvorligi mintaqada davlatlarining so‘nggi yillarda xalqaro munosabatlardagi faol ishtiroki, iqtisodiy rivojlanish dinamikasi, o‘zaro tenglikka asoslanuvchi munosabatlarga asoslanishi fonida yanada oshadi. Bundan tashqari, mintaqaning ayrim davlatlarining xalqaro tashabbuslari (“Bir makon – bir yo‘l” kabi) O‘zbekiston uchun boshqa vektorlardagi hamkorlikni rivojlantirishga imkon berishi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Бош вазири Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги нутқи // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб сайти. <https://president.uz/uz/lists/view/5>
2. Ўзбекистон Республикаси Ташқи сиёсий фаолияти Концепцияси. 2012 йил 10 сентябрь. // Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. №9/1(1437-сон), 2012.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: “Адолат”, 2018.
4. Высокие результаты сотрудничества, основанного на взаимном доверии и прочной дружбе // <https://president.uz/ru/lists/view/502>
5. Япония - надежный партнер Узбекистана // <https://uza.uz/ru/posts/yaponiya-nadezhnyu-partner-uzbekistana-28-07-2020>
6. За 2017-2023 годы внешняя торговля Узбекистана выросла в 2,4 раза // <https://uzconsulate-aktau.kz/2024/%>
7. Какие страны и сколько инвестировали в Узбекистан в 2021 году // <https://www.spot.uz/ru/2022/03/10/ivestments/>